

SAID AHMADNING "QOPLON" HIKOYASI TAHLILI. "QOPLON" HIKOYASIDA IJTIMOIY HAYOT TASVIRI

Karimberdiyeva Dildora

*Guliston davlat pedagogika instituti Ijtimoiy-gumanitar fanlar fakulteti
O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 21-23 guruh talabasi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada taniqli yozuvchi, davlat arbobi Said Ahmad Husanxo'jayevning ijodiga nazar tashlaymiz. Yozuvchining adabiy-badiiy sohada yaratgan asarlarini yodga olamiz. Said Ahmad hajviy hikoyalar yaratish bo'yicha yuksak darajaga erishgan. "Qoplon" hikoyasi adib ijodining bir qismini tashkil etadi. Bu hikoyani tahlil qilib, biz uchun kerakli bo'lgan ma'lumotlarga ega bo'lamiz.*

Kalit so'zlar: *hajviya, satira, yumor, shoh asar, intim tuyg'ular, felyeton, hikoyanavis, odamgarchilik, Tillayev, Qurbonboy, Qoplon, ikkiyuzlamachilik, komediya, sadoqat.*

Annotation: *In this article, we will look at the work of the famous writer and statesman Said Akhmed Husankhojayev. We remember the writer's literary and artistic works. Saeed Ahmed has reached a high level in creating comic stories. The story "Leopard" is part of the author's work. By analyzing this story, we will get the information we need.*

Key words: *humor, satire, humor, masterpiece, intimate feelings, feuilleton, story writer, humanism, Tillayev, Kurbanboy, Kaplan, hypocrisy, comedy, loyalty.*

Аннотация: *В этой статье мы рассмотрим творчество известного писателя и государственного деятеля Саида Ахмеда Хусанходжаева. Мы помним литературные и художественные произведения писателя. Саид Ахмед достиг высокого уровня в создании комических историй. Рассказ «Леопард» является частью творчества автора. Проанализировав эту историю, мы получим необходимую нам информацию.*

Ключевые слова: *юмор, сатира, юмор, шедевр, интимные чувства, фельетон, рассказчик, гуманизм, Тиллаев, Курбанбой, Каплан, лицемерие, комедия, верность.*

Adabiyot - hayot haqidagi fan. Adabiy asarlar insonda hayotga muhabbat tuyg'usini uyg'otadi. Barcha adabiy-badiiy asarlar insonning jamiyat bilan aloqasini, eng ulug', eng go'zal his-tuyg'ular, ajib hodisalar haqidagi qarashlarini aks ettiradi. Ayniqsa, badiiy adabiyot inson qalbiga, qalbning eng nozik joyiga ta'sir qiladi va balki insonda qalbni shakllantiradi.

Badiylik bu nafislik degani. Shu bois badiiy adabiyotni nafis adabiyot desak, hech mubolag'a bo'lmaydi. Taniqli yozuvchi Abdulla Qahhor aytganlaridek : " Adabiyot - atomdan kuchli, lekin uning kuchini o'tin yorishga sarflamaslik kerak".

Darhaqiqat, adabiyot cheksiz qudratga ega, adabiyot - bu san'at. Bilamizki, har bir san'at turining o'z ish quroli bor. Adabiyotning asosiy ish quroli so'zdir.

O'z o'rnida qo'llangan har qaysi so'z qalbga malham bo'ladi. Ish quroli so'z bo'lgan san'at namoyondalari yozuvchi va shoirlardir. Biz har qaysi yaratilgan badiiy asarni mutolaa qilsak, uning og'ushiga g'arq bo'lamiz, go'yo. Go'yoki asar voqealari ayni hayotimizda sodir bo'layotgandek undan ta'sirlanamiz. Asar qahramoni o'rniga o'zimizni qo'yib ko'ramiz, kulsa, birgalikda kulamiz, xafa bo'lsa, xafa bo'lamiz. Badiiy adabiyot ana shunday qudratga ega.

Mashhur o'zbek adibi, taniqli yozuvchi, davlat arbobi Said Ahmad Husanxo'jayev Toshkent shahrining Samarqand darvoza mahallasida tavallud topgan. Uning bolalik yillari Oybek, G'afur G'ulom, Elbek singari ko'plab bo'lajak yozuvchilar davrasida o'tgan. Said Ahmad bolaligidan badiiy ijodga mehr bilan qaragan. Said Ahmad adabiyotga hikoya yozish bilan kirib kelgan. Ilk kikoyalari "Mushtum", " Qizil O'zbekiston " jurnallarida chiqarilgan. Uning birinchi hikoyalar to'plami 1940-yilda "Tortiq" nomi bilan bosmadan chiqqan. Said Ahmad omma orasida mohir hikoyanavis sifatida tanilgan. Yozuvchining "Sobiq", "Qoplon", "Cho'l burguti", "Bo'ston", "To'yboshi", " Muhabbatning tug'ilishi", "Qorako'z Majnun" kabi o'ndan ziyod hikoyalarida mehr-oqibat, sadoqat, o'zaro ishonch, e'tiqod singari ma'naviy qadriyatlar ta'sirchan tarzda aks ettirilgan. Said Ahmad hikoyalarida inson ruhiyatiga xos o'zgarishlarni ko'rsatishga katta e'tibor qaratilgani bois barcha asarlari zavq-u shavq bilan, hech qayerda to'xtamasdan, bo'g'ilmasdan o'qiladi. Yozuvchi hajviy asarlari bilan ham katta shuhrat qozongan. Said Ahmad hajviy hikoyalar yaratishda Abdulla Qahhor an'alarini davom ettirgan ijodkordir. Uning ko'plab hajviyalari, xususan, "Sobiq", "Qoplon", "Muzei", "Bo'ri ovi", "Xandon pista", "O'rik domla" hikoyalarida inson tabiatida qusurlar qattiq tanqid qilinib, olijanob xususiyatlar, intim tuyg'ular ulug'lanadi. Said Ahmad satira va yumorda tengsiz ijodkordir. U hajviy so'zlar jilosini tez payqaydi va ularni mohirona terib, mukammal asar yaratadi. Said Ahmad ijodining katta qismini hajviy-yumoristik hikoyalar, qissalar va komediyalar tashkil etadi. Bunlardan tashqari felyeton janrida ham samarali ijod qilgan.

"Qoplon" hikoyasi Said Ahmad ijodida alohida ahamiyatga ega. Bu hikoya Tillayev degan kishining yangi uyga ko'chishi tasviri bilan boshlanadi. Yangi uyga ko'chib kirish ishlariga Qurbonboy ismli garajda mashina yuvuvchi vazifasida ishlovchi kishi yordam beradi.

Qurbonboy Tillayevning uyiga bir it zarurligini aytadi va ertasiga bir it keltiradi, hovli chetidan unga uya qurib beradi. Qurbonboy uy egasining ayoliga uy yumushlarini bajarishga ko'maklashadi. O'zini kuyib-pishib maqtaydi. Tez orada Qurbonboy bu oila uchun qadrdon insonga aylanadi. Tillayev u qilayotgan ishlari, jonkuyarligi sababli Qurbonboyga mehr qo'yadi, lavozimini oshiradi, chala uyini bitirib olishi uchun yordam beradi.

Bilamizki, inson umri yaproqqa o'xshaydi. Hayotning insonlar uchun sinovlari ko'p.

Hikoyamiz qahramoni Tillayev ham xastalikka chalinib qoladi va ishdan bo'shaydi. Uning o'rniga yangi direktor tayinlanadi. Buni qarangki, Qurbonboy o'sha kech kelib Qoplanni olib chiqib ketib, qaytarib kelmaydi. Kunlar o'tsa ham, na Qurbonboy, na Qoplondan darak bo'ladi.

Tillayev itga juda o'rganib qolgandi. Oradan vaqt o'tib yangi direktor uyida ziyofat beradi, Tillayev va ayolini ham taklif qilishadi. Darvozadan kirishlari bilan yo'lakda yotgan it ular tomon talpinadi. Ne ko'z bilan ko'rishsinki, bu Qoplon edi. Direktor itga ishora qilib, uni maqtaydi.

Tillayev bir chetta direktorga qulluq qilib turgan Qurbonboyga bir qarab qo'yib uyga kirib ketadi. Ha, u asar har kimni ham chuqur o'yga toldirib qo'yadi. Hikoya yengil boshlanib, og'ir his-tuyg'ular bilan yakunlanadi. Bu asarda yumor san'atidan mohirona foydalanilgan. Asarda Tillayev obrazida halol, saxiy, tanti kishilar hayoti yoritilgan.

Tillayevning ayoli ham o'zi singari ishonuvchan va mehribon inson. Qoplon asarda sadoqat va e'tiqod timsoli bo'lib gavdalanadi. Qurbonboy - bu qahramon asarning eng og'riq nuqtasi, jamiyatning kemtik bir qismi. Qurbonboy asarda ikkiyuzlamachi, kazzob, birovning ishonchini suiiste'mol qilishga o'rganib qolgan, yolg'onchi kishilarning obrazi sifatida tasvirlangan. Said Ahmad bu hikoyada jamiyatimizdagi faqat o'z manfaatini o'ylab ish ko'radigan, egoist, ikkiyuzlamachi shaxslarni qattiq tanqid qilgan.

Bunday insonlarning qilgan har bir ishidan jonkuyarlik sifatlari yog'ilib turgandek go'yo. Ammo sayoz ariqqa qo'lingizni solsangiz loyqalanadi. Bunday shaxslar ham aslida sayoz, arzimas va "loyqa" shaxslardir. Jonkuyarliklari aslida o'z joni uchun o'zgalarni aldashdan iborat bo'lgan ana shunday shaxslar jamiyatimizning eng og'riq nuqtalaridir. Ular sababli insonlar o'zaro ishonch deb ataladigan ajib tuyg'uga unchalik ham ishonavermaydi. "Qoplon" hikoyasi mana shuning uchun ham xalqimiz orasida suyumlidir.

Muhokama: Barchamizga ma'lumki, hayot doimo bir tekisda ketuvchi yo'l emas. Uning o'ydim-chuqur joylari ko'p. Har bir inson o'ziga o'lchab berilgan umrni yashaydi. Bu jihatdan hamma tengdir. Ammo o'sha umrni qanday o'tkazish har bir insonning o'ziga bog'liq. "Qoplon" hikoyasi bizni chuqur o'yga tolshga, insonlar to'g'risida fikr yuritishga, go'zal va chirkin vaziyatlarda insonlar shuuri haqida tasavvur qilib ko'rishga undaydi. Bu hikoya ta'sirida biz o'z-o'zimizga savol beramiz, xo'sh Said Ahmad yashagan davr XX asr uchun illat sanalgan bunday holatlar hozirda kammi? Yoki bugungi jamiyatimiz bunday vaziyatlardan holimi? Aslo... Hozirgi kunda "Qoplon"da tasvirlangan, qoralangan vaziyatlar ko'paysa ko'payganki, kamaymagan. Xo'sh, bunga sabab nima? Insonlar bir-birini aldashga, ikkiyuzlamachiliklarga shunchalik o'rganib qolganmi? Shu kabi muammoli, og'riqli savollarga javob topish uchun atrofimizga nazar tashlaylik. Qurbonboy singari kishilarni to'g'ri yo'lga boshlaylik. Axir xalqimiz to'g'rilikni qadrlaydi.

Xulosa: Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Said Ahmadning "Qoplon" hikoyasi chin ma'noda haqiqiy hayot in'ikosi.

Hikoya real hayot voqeligiga asoslangan. Unda jamiyatda kishilarning iliq, sof, samimiy tuyg'ulari go'zal va farovon hayot uchun poydevor bo'lishi ta'kidlangan.

Asarni mutolaa qilgan har bir o'quvchi uning ma'vzu va ma'nosidan lol qoladi, hikoyani haqiqiy "shoh asar" deb ulug'laydi desak, hech mubolag'a bo'lmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Said Ahmad "Saylanma" asari.
2. Adabiyot 6-sinf darslik 2016-yil.
3. S. Mirvaliyev "O'zbek adiblari" 2000-yil.